

## PIRLS XALQARO BAHOLASH DASTURI ASOSIDA O'QUVCHILARDA O'QISH SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHNING METODIK TALABLARI

Norkulova Nilufar

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Boshlang'ich ta'lif yo'naliishi 2-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) xalqaro baholash dasturi doirasida o'quvchilarda o'qish savodxonligini rivojlantirishga oid metodik yondashuvlar yoritilgan. Mazkur tadqiqotda o'quvchilarни o'qish faoliyatiga jalg etish, ularning matnni tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish usullari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, metodik talablar va milliy ta'lif standartlari o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash bo'yicha takliflar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** PIRLS, o'qish savodxonligi, metodika, xalqaro baholash, boshlang'ich ta'lif, savodxonlik ko'nikmalar

### Muammoning dolzarbligi

Zamonaviy ta'lif jarayonida o'quvchilarning o'qish savodxonligini shakllantirish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Jahon miqyosida ta'lif sifatini baholashda PIRLS dasturi asosiy mezonlardan biri sifatida tan olingan. O'zbekiston Respublikasi ham ushbu xalqaro dasturda ishtirok etar ekan, o'quvchilarни global mezonlar asosida tayyorlash, ularning matn bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish dolzARB muammoga aylanmoqda. Shunday ekan, ushbu sohada samarali metodik talablarni ishlab chiqish ta'lif tizimining bugungi kun talabi hisoblanadi.

### Kirish qismi

Bugungi kunda ta'lif sohasida global raqobat kuchayib borayotgan bir davrda har bir mamlakat o'z ta'lif tizimini zamon talablari asosida isloh qilishga intilmoqda. Shu nuqtai nazardan, o'quvchilarning o'qish savodxonligi darajasini oshirish ta'lifning sifat ko'rsatkichlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Chunki o'qish savodxonligi – bu faqatgina matnni tovushlab o'qish emas, balki uni anglash, tahlil qilish, asosiy g'oyani ajrata olish, xulosa chiqarish va o'z fikrini asosli ifoda etish kabi ko'nikmalar majmuidir. Aynan mana shu ko'nikmalar bola shaxsining intellektual va ijtimoiy shakllanishida asosiy rol o'ynaydi.

Xalqaro miqyosda o'quvchilarning o'qish savodxonligi darajasini aniqlash va tahlil qilish maqsadida PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) dasturi tashkil etilgan. Bu dastur har 5 yilda bir marta boshlang'ich sinf o'quvchilarining matn bilan ishlash qobiliyatini, ularning fikrlash darajasi va o'qishga bo'lgan munosabatini baholaydi. Eng asosiysi, PIRLS nafaqat natijalarni o'lchaydi, balki ta'lif tizimiga chuqur tahliliy ma'lumotlar beradi: o'quvchilarни qanday o'quv muhitda o'qiyotgani, qanday metodlar eng samarali ekani, o'qituvchilarning tayyorgarlik darajasi kabi ko'plab omillarni ochib beradi.

O'zbekiston ham 2021-yilda ushbu xalqaro dasturda ishtirok etdi va bu, o'z navbatida, mamlakatimizda boshlang'ich ta'limga bo'lgan yondashuvlarni qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirdi. O'zbek o'quvchilarining savodxonlik darajasini xalqaro mezonlarga moslashtirish uchun yangi metodik talablar ishlab chiqish, dars jarayonini takomillashtirish va o'qituvchilarni zamonaviy pedagogik yondashuvlarga yo'naltirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur maqolada aynan shu masala – PIRLS dasturining asosiy talablari va ularni mahalliy ta'lim tizimiga integratsiya qilish asosida o'quvchilarda o'qish savodxonligini shakllantirish yo'llari yoritiladi. Shuningdek, samarali metodik yondashuvlar, innovatsion o'qitish texnologiyalari va baholash mexanizmlarining o'rni tahlil qilinadi. Maqsad – xalqaro tajriba va milliy ehtiyojlar uyg'unligida optimal metodik talablarni shakllantirishga ilmiy asoslar bilan yondashishdir.

### Asosiy qism

#### 1. PIRLS baholash tizimining mazmun-mohiyati

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) — IEA (International Association for the Evaluation of Educational Achievement) tashkiloti tomonidan amalga oshiriladigan nufuzli xalqaro tadqiqot bo'lib, u 4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholashga qaratilgan. Baholashda ishtirok etuvchi davlatlar o'z o'quvchilarining o'qishga oid bilim va ko'nikmalarini nafaqat ichki, balki xalqaro darajadagi mezonlar asosida ko'rib chiqish imkoniga ega bo'ladilar.

PIRLS dasturida o'quvchilarga turli janrdagi matnlar (adabiy va informatsion) taqdim etiladi. Har bir matnga mos savollar tuzilib, o'quvchilarning quyidagi ko'nikmalari aniqlanadi:

- Matnni anglash va mazmunni tushunish;
- Matndagi asosiy g'oyani ajratish;
- Tafsilotlarni izlab topish;
- Muallif niyatini tushunish va baholash;
- Matn yuzasidan o'z fikrini ifoda etish va izohlash.

Bu ko'rsatkichlar o'quvchining nafaqat o'qiy olish darajasini, balki mustaqil fikrashi, tahliliy yondashuvi, matn bilan muloqot qila olish darajasini ham aniqlab beradi. Demak, o'qish savodxonligi — bu zamonaviy jamiyatda faol ishtirok etish uchun zarur bo'lgan universal ko'nikmalar majmuidir.

#### 2. O'qish savodxonligini shakllantirishdagi metodik talablar

O'qish savodxonligini shakllantirish o'ziga xos tizimli, uzviy va bosqichma-bosqich yondashuvni talab qiladi. Har bir boshlang'ich sinf bosqichi o'quvchining matn bilan ishlash darajasiga mos metodlar asosida tashkil etilishi lozim. Quyida bu boradagi asosiy metodik talablar keltiriladi:

##### 2.1. Turli tipdag'i matnlar bilan ishlash:

O'quvchilar adabiy va informatsion matnlar bilan birdek ishlashni o'rganishi zarur. Masalan, ertak, hikoya, maqola, xabarnoma, izohli lug'atlar kabi matn turlari

orqali o'quvchilarning matnga nisbatan turlicha yondashuvlari shakllanadi. Har bir janrga xos stilistik uslub, tuzilma va ma'no qatlamlarini tahlil qilish orqali o'quvchi fikr doirasini kengaytiradi.

### 2.2. Kontekst asosida so'z va iboralarni tushunishga o'rgatish:

PIRLS savollarining aksariyatida o'quvchidan matn doirasida so'z ma'nosini, ibora yoki jumlalarni kontekst asosida tushunish kutiladi. Shu bois, o'qituvchilar o'quvchilarni har bir so'zga emas, butun matnga e'tibor qaratishga o'rgatishlari kerak.

### 2.3. Faol o'qish strategiyalarini qo'llash:

O'qish jarayonida insert (belgilar qo'yib o'qish), klaster (tushunchalar xaritasi tuzish), "men o'ylayman – men bilaman – men o'rgandim" kabi interfaol usullar o'quvchining matn ustida faol fikrlashiga yordam beradi. Bu usullar matnni faqat o'qib chiqishni emas, balki uni tahlil qilishni, unga shaxsiy munosabat bildirishni rag'batlantiradi.

### 2.4. Dialogik o'qish asosida fikr almashish:

Sinfdoshlar bilan matn yuzasidan bahs-munozara yuritish, savol-javob tarzida fikr bildirish o'quvchilarda og'zaki va yozma savodxonlikni bir paytda rivojlantiradi. O'qituvchining asosiy vazifasi — faqat bilim berish emas, balki o'quvchilarni savol berishga va javob topishga undashdir.

### 2.5. Baholashning formatini o'zgartirish:

An'anaviy "to'g'ri – noto'g'ri" yondashuvi o'rniga formativedan foydalanish, ya'ni o'quvchining matn bilan ishlashdagi yo'nalishini, harakatlarini baholash tavsiya etiladi. Bu orqali o'quvchining kuchli va zaif tomonlari aniqlanadi va individual yondashuvga asos yaratiladi.

## 3. O'zbekiston tajribasi va istiqboldagi takliflar

O'zbekiston 2021-yildan boshlab PIRLS baholash dasturida qatnasha boshladidi. Dastlabki ishtirokiy natijalar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarimizda matnni tovushlab o'qish darajasi yaxshi bo'lsa-da, matnni anglash, tahlil qilish va izoh berish darajasi yetarlicha shakllanmagan. Bu holat metodik yondashuvlarimizda muayyan bo'shliqlar borligini ko'rsatmoqda.

Shu bois quyidagi takliflar dolzarb hisoblanadi:

- O'qituvchilarni xalqaro mezonlar asosida tayyorlash: Har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi PIRLS talablari haqida bilimga ega bo'lishi kerak. Maxsus malaka oshirish kurslari, amaliy mashg'ulotlar orqali bu maqsadga erishish mumkin.

- Darslik va metodik qo'llanmalarni yangilash: Boshlang'ich sinflar uchun yaratilgan o'quv materiallari faqat bilim emas, balki fikrlashni rivojlantiradigan topshiriqlarni ham o'z ichiga olishi lozim.

- Metodik xizmatni kuchaytirish: Har bir tumanda metodistlar ishtirokida o'qish savodxonligini rivojlantirish bo'yicha "metodik markazlar" tashkil etish, tajriba almashish platformalarini yo'lga qo'yish muhimdir.

• Monitoring va diagnostik baholash tizimini yo'lga qo'yish: Maktab ichki monitoringi orqali har bir o'quvchining savodxonlik darajasini aniqlab borish, o'qituvchilarga maqsadli tavsiyalar berish zarur.

#### Metod

Mazkur tadqiqot ishida PIRLS xalqaro baholash dasturi doirasida o'quvchilarda o'qish savodxonligini shakllantirishga oid metodik talablarni aniqlash va asoslash uchun kompleks yondashuv asos qilib olindi. Ya'ni, faqatgina nazariy ma'lumotlar bilan cheklanilmasdan, amaliy tajriba, xalqaro standartlar va mahalliy ta'lim tizimi holati o'zaro taqqoslab o'rGANildi. Bu jarayonda quyidagi tadqiqot metodlari qo'llanildi:

##### 1. Tahlil (analitik) usuli

Avvalo, PIRLS baholash dasturining rasmiy hujjatlari, baholash mezonlari, test shakllari, metodik ko'rsatmalar chuqur o'rganib chiqildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan boshlang'ich ta'limga oid davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va darsliklar tahlil qilindi. Bu tahlil orqali xalqaro mezonlar bilan milliy talablardagi o'xshashlik va tafovutlar aniqlandi.

##### 2. Taqqoslash usuli

PIRLS dasturida yuqori natija ko'rsatgan davlatlar (masalan, Singapur, Irlandiya, Finlyandiya va Janubiy Koreya) ta'lim tizimlari, ayniqsa boshlang'ich ta'limdagi o'qish savodxonligini shakllantirish bo'yicha qo'llanayotgan metodik yondashuvlar tahlil qilindi va O'zbekiston tajribasi bilan taqqoslandi.

Bu orqali qaysi usullar bizning ta'lim tizimimizga mos tushishi, qaysi jihatlarni moslashtirish lozimligi haqida xulosa chiqarildi.

##### 3. Kontent-tahlil usuli

O'zbekiston maktablarida qo'llanilayotgan 1–4-sinf ona tili va o'qish savodxonligi faniga oid darsliklar va metodik qo'llanmalar kontent tahlil qilindi.

Ular orqali o'quvchilarning matn bilan ishslash, tahlil qilish, savolga javob topish kabi kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi topshiriq va mashqlar ulushi o'rGANildi. Shu asosda mavjud metodik materiallardagi kuchli va zaif tomonlar ajratib olindi.

##### 4. Empirik kuzatuv va suhbatlar

Tadqiqot jarayonida bir qator maktablarda boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilan suhbatlar tashkil etildi.

Ularning amaliy faoliyatda qanday metodlardan foydalanayotgani, PIRLS mezonlari haqida xabardorlik darajasi, matn ustida ishslashdagi yondashuvlari o'rGANildi.

Bundan tashqari, ba'zi sinflarda ochiq darslar kuzatildi va o'qituvchining o'quvchi bilan qanday muloqot qilishi, matnni qanday tahlil qilishi kuzatuv asosida baholandi.

##### 5. Sintez va umumlashtirish

Yuqoridagi barcha ma'lumotlar sintez qilinib, o'zaro bog'liqlikda tahlil etildi. Amaliy kuzatuvlar, xalqaro tajriba va mahalliy hujjatlar asosida o'qish savodxonligini shakllantirishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan metodik talablar umumlashtirildi va maqola asosiy qismiga integratsiya qilindi.

#### Xulosa

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'qish savodxonligini shakllantirish — bu faqat boshlang'ich ta'limning emas, balki butun ta'lim tizimining poydevorini mustahkamlash deganidir.

Chunki matnni anglaydigan, tahlil qiladigan va fikr bildira oladigan shaxs — keljakda har qanday sohada mustaqil va samarali faoliyat yurita oladigan fuqaro bo'lib yetishadi.

Aynan shu nuqtai nazaridan, PIRLS xalqaro baholash dasturi O'zbekiston ta'lim tizimi uchun katta imkoniyatlar, lekin shu bilan birga mas'uliyat ham yaratdi.

Mazkur tadqiqot asosida aniqlanishicha, o'quvchilarda o'qish savodxonligini shakllantirishda metodik yondashuvlar va o'quv dasturlaridagi topshiriqlar hali yetarlicha chuqur va kompleks yo'naltirilmagan.

Ko'proq so'z yodlash, matnni tovushlab o'qish, qisqacha qayta hikoya qilish kabi sathiy yondashuvlar ustunlik qilmoqda.

Biroq PIRLS mezonlari, asosan, o'quvchining o'qigan matni ustida fikrlashi, u orqali anglay olishi va izoh bera olishini talab qiladi.

Demak, bizning vazifamiz — o'quvchilarning shunchaki o'qib chiqishini emas, balki o'qiganini tushunishini, anglashini, unga shaxsiy munosabat bildira olishini ta'minlashdir.

Shu maqsadda maqolada taklif qilingan metodik talablar — bosqichma-bosqich rivojlantirish, turli janrdagi matnlar bilan ishlash, interfaol uslublar orqali o'qishga jalg etish, hamkorlikda fikr yuritish, shuningdek, baholashning formatini o'zgartirish kabi yondashuvlar o'qish savodxonligini rivojlantirishda muhim o'rinn tutadi.

Eng asosiysi, bu jarayonda o'qituvchining roli beqiyos — u faqat bilim beruvchi emas, balki o'quvchining fikr yuritishiga yo'l ochuvchi, fikrini yo'naltiruvchi murabbiy bo'lishi lozim.

Yakuniy xulosa qilib aytish mumkinki, O'zbekistonning PIRLS kabi xalqaro dasturlarda munosib ishtirok etishi uchun:

- Boshlang'ich ta'lim tizimi xalqaro baholash mezonlari bilan uyg'unlashtirilishi;
- O'qituvchilar malakasi oshirilib, ular zamonaviy metodik uslublar bilan qurollantirilishi;
- Darslik va metodik materiallar takomillashtirilib, ularga o'quvchining tanqidiy fikrlashini rivojlantiruvchi topshiriqlar kiritilishi;
- Har bir o'quvchining individual rivojlanishi doimiy monitoring asosida baholanib borilishi zarur.

Faqat shu hollarda biz o'quvchilarning haqiqiy savodxonligini — ya'ni o'qiganini anglaydigan, mulohaza yuritadigan va uni hayotda qo'llay oladigan salohiyatli shaxs sifatida shakllanishini ta'minlay olamiz.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Mullis, I.V.S., Martin, M.O., Foy, P., & Drucker, K.T. (2020). PIRLS 2021 Assessment Framework. Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center. <https://timssandpirls.bc.edu>
2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. (2021). Boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standarti. Toshkent: XTV.
3. PIRLS xalqaro baholash dasturi natijalari bo'yicha hisobot (2021). O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Milliy baholash markazi.
4. Абдурахманова, З. (2023). O'quvchilarda o'qish savodxonligini shakllantirishning metodik asoslari. Ta'lim va innovatsiya ilmiy-amaliy jurnali, №1(15), 45–49.
5. Hasanov, I. (2022). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish malakasini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari. Pedagogik mahorat jurnali, №4(12), 60–64.
6. UNESCO. (2017). Reading in the Early Grades: Learning from PIRLS Data. Paris: UNESCO Institute for Statistics.
7. Юсупова, М. (2021). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini oshirishda innovatsion metodlardan foydalanish. Boshlang'ich ta'lim ilmiy-amaliy jurnali, №2(8), 30–34.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori PQ-4359-son, 2021-yil 13-aprel. "2021–2023 yillarda xalqaro baholash dasturlarida O'zbekiston Respublikasining ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida".
9. Anderson, R.C., Hiebert, E.H., Scott, J.A., & Wilkinson, I.A.G. (2018). Becoming a Nation of Readers: The Report of the Commission on Reading. Washington, DC: National Institute of Education.
10. Тошматова, Ш. (2022). O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda matnlar ustida ishlash metodikasi. Zamonaviy ta'lim muammolari, №3(25), 76–80.